


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**O'ZBEK ADABIYOTI  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60110700 – O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi O'A1216	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi:  O'zbek adabiyoti	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)  60	Mustaqil ta'lif (soat)  60	Jami yuklama (soat)  120

## 2. I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni adabiyotning tarixiy asoslari, tarixiy o'tmishda ijod qilgan shoir va yozuvchilarining ijod namunalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, tarixiy adabiyotning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga adabiyot tarixi fanining ahamiyati, o'zbek adabiyotining tarixiy asoslari va nazariy masalalariga oid bilim va tushunchalar berish, tarixiy adabiyotning mavzui, mazmun-mundarijasi, hozirgi kun bilan bog'liqligi va boshqa sohalar bilan munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek adabiyotining asoslari, og'zaki va yozma adabiyotning tarixiy shakllanish bosqichlari kabilarni bilish, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.

## II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Adabiyot – so'z san'ati, hayotning badiiy in'ikosi ekanligi.** O'zbek adabiyoti o'zbek xalqining eng qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan badiiy hayotini o'rgatuvchi fan sifatida. Qadimgi mif va afsonalar; qahramonlik eposi; qadimgi qo'shiq va lirk sheriylar.

### 2-mavzu. Eng qadimgi yozma adabiy yodgorlik

Avesto, "Avesto" Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi, zardushtiylikning muqaddas kitobi ekanligi. Zardusht va zardushtiylikning paydo bo'lishi, o'z davri hayoti uchun progressivligi. "Avesto"ning saqlanib qolgan qismlari va ilmiy ahamiyati.

### 3-mavzu. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari yaratilish tarixi va tarqalish o'rni. "Kul-Tegin" va "Tunyuquq" bitiktoshlarining mazmuni, ulardag'i qahramonlik, xalq mustaqilligi, yurt daxlsizligi uchun kurash motivlari va bu g'oyaning bugungi kun bilan hamohanglik jihatni.

**4-mavzu. Islomgacha bo'lgan davrdagi qadimgi turkiy adabiyot.** Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot. "Xuastuanift"ning g'oyaviy mazmuni.

**5-mavzu. Islomgacha bo'lgan davrdagi qadimgi turkiy adabiyot.** Budda oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot. "Oltin yorug"ning yaratilishi, tarjimalari. Irq bitiglari – adabiy manba sifatida. "O'g'uznama" dostoni.

**6-mavzu. Ilk uyg'onish davri adabiyoti.** Xorazmiyning ilmiy faoliyati. Ahmad al-Farg'oniying faoliyati. Farobiyning fanga qo'shgan hissasi. Ibn Sinoning adabiyotga qo'shgan hissasi.

**7-mavzu. Ilk uyg'onish davri adabiyoti.** Abu Rayhon Beruniy va uning ilmiy, adabiy faoliyati. Rudakiyning O'rta Osiyo adabiy muhitidagi o'rni. Firdavsiyning adabiyotga qo'shgan hissasi.

**8-mavzu. X-XII asrlar adabiyoti.** Davr adabiy-madaniy hayoti. Ilm-fan, madaniyat va san'at rivoji haqida ma'lumot. X – XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.

**9-mavzu. X-XII asrlar adabiyoti.** Bu davrdagi badiiy asarlar va tazkirachilik. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi.

**10-mavzu. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devoni lug'otit-turk" asari** "Devoni lug'otit-turk" – adabiy manba sifatida. Asarning adabiyotga bevosita aloqador jihatlar: maqollar, hikmatli so'zlar, she'riy parchalar, ularning mazmun-mohiyati, ularda xalq donoligi, orzu istaklariga xos jihatlari.

**11-mavzu. Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari** "Qutadg'u bilig" hamda ijtimoiy-siyosiy masalalar. Asar turkiy yozma adabiyotning ilk yirik adabiy namunasi sifatida. Asarning syujeti va kompozitsiyasi.

**12-mavzu. Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari** Asarda markazlashgan davlat va odil shoh g'oyasining ifodalaniishi. Asarda komil inson qiyofasi. Asardagi qasida va to'rtliklar.

**13-mavzu. Ahmad Yugnakiy va uning "Hibatul-haqoyiq" asari.** Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibatul-haqoyiq" badiiy san'at va adabiy tilning noyob namunasi sifatida. Asarning tuzilishi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

#### **14-mavzu. Ahmad Yassaviy va uning hikmatlar to'plami**

Yassaviy hikmatlarining pandnomalar harakteri va mazmun-mohiyati.

#### **15-mavzu. Tasavvuf falsafasi va adabiyot, komil inson tushunchasi.**

Tasavvuf falsafasi va adabiyot: tasavvuf falsafasining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda adabiyot bilan bog'liqligi. Adabiyotda "Komil inson" timsoli.

### **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi adabiy yodgorliklarning tarixiy, ilmiy va adabiy ahamiyati
2. Qadimgi og'zaki adabiyot: Mif va afsonalar
3. "Avesto" ning tarixiy, ilmiy va adabiy qimmati
4. Toshbitiklarning tarixiy, ilmiy ahamiyati
5. Irq bitiglari- adabiy manba sifatida. "O'g'uznama" dostoni
6. "Oltin yorug'" ning yaratilishi, tarjimalari
7. Ibn Sino ijodida "Hay bin Yaqzon" qissasi va "She'r san'ati" asari
8. Rudakiy va Firdavsiyning O'rto Osiyo adabiy muhitidagi o'mni
9. "Devonu lug'otit turk" asari. Asarning o'rganilishi, tuzilishi
10. "Qutadg'u bilig" asarining yaratilishi, o'rganilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Obrazlar tizimi, ularda ifodalanganramziylik. Asarda adibning falsafiy dunyoqarashining o'ziga xos ifoda etilishi
11. Yusuf Xos Hojibning siyosiy-ijtimoiy qarashlari. Asarda ilm-ma'rifat, odob-axloq masalalarining o'ziga xos talqini
12. "Hibatul-haqoyiq" badiiy san'at va badiiy tilning noyob namunasi sifatida.
13. "Hibatul-haqoyiq" dostonning tuzilishi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
14. Yassaviy hikmatlarida inson va uning ma'naviy qiyofasiga munosabat, johillik va nodonlik, ishq va oshiqlik, dunyo va uning bir butun mohiyati haqidagi fikrlar.
15. Tasavvuf falsafasi va adabiyot: tasavvuf falsafasining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda adabiyot bilan bog'liqligi. Adabiyotda "Komil inson" timsoli

### **Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalgalashadi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarini tahlil qilib, xulosalarini bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Dostonchilik muammolarini o'rganish
2. "Ming bir kecha" asarida hikoya qilish san'ati
3. Kaykovusning "Qobusnama" asaridagi hikoyat va tamsillar
4. Nizomulmulkning "Siyosatnama" asaridagi hikoyatlar tahlili.
5. Umar Xayyom "Navro'znama" asari tahlili
6. Firdavsiy "Shohnoma"si qahramonlari. Ularning keyingi davr epik poeziyasiga ko'chishi
7. "Chahor maqola" (Nizomiy Aruzi Samarqandiy) asari tahlili
8. Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarining Sharq adabiyotida tutgan o'mni
9. Safarnoma va sayohatnama turkumidagi asarlar (Nosir Xusrav, Ibn Batuta va boshqalarning asarlari misolida)
10. Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asari tahlili
11. "Devonu lug'otit turk"dagi adabiy janrlarni o'rganish
12. "Al jomi as-sahih" dagi hadislardan namunalar to'plash
13. Gul va bulbul obrazlari aks etgan baytlar tahlili
14. May, soqiy, tarso, jom, xarobot timsollar keltirilgan baytlarni to'plash
15. Ranglar va raqamlarning ramziy ma'nolari
16. Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotatsiyasini tuzish
17. Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o'rganish, "Mineralogiya" kitobidagi hikoyatlarni tahlil qilish
18. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Yusuf obrazi.
19. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Zulayho obrazi.
20. Atoiy lirikasida hayot va sevgi mavzusi.

### **VII. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

#### **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- O'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti davomida so'z san'ati takomili, estetik ta'sirini his etish, jumladan, adabiy-badiiy matn ustida ishlash, badiiy matnlarda qo'llaniladigan tasviriy vositalar, she'riy san'attar yuzasidan **bilimga ega bo'ladi**.
- Lug'at ustida ishlay olish, eski o'zbek yozuvni, arab, fors tillaridan xabardon bo'lish va muhim xulosalar yasay olish, o'zbek adabiyotining yuksak g'oyaviy-badiiy va ilmiy-nazariy bilimlarini o'rganishi uchun talabalar quyidagi **ko'nikmalarga ega bo'ladi**:
- o'zbek adabiyoti konsepsiyasining o'ziga xosligi;
- o'zbek mumtoz adabiyotining ifoda usullari;
- o'zbek adabiyoti namoyondalari ijodining yetakchi tamoyillari;
- o'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari;
- o'zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini aniqlash;
- o'zbek adabiyotida jadidchilikning o'mini belgilash;
- o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalar hayoti va ijodini tavsiflash;
- o'zbek adabiyotining tarixiy-milliy, milliy-zamonaviy xususiyatlarini anglash;
- har bir ijodkorning o'zbek adabiyotida tutgan o'mini aniqlash.

	Bu esa talabalarda o'zbek adabiyoti nafosatini teran his qila olish va tahlil etish malakasiga ega bo'lishlariga yordam beradi.
4.	<p><b>VIII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishslash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p><b>X. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi – T.: "Sano-standart", 2017.</li> <li>2. Djumayeva S., Botirova Sh. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: "Ishonchli hamkor", 2020.</li> <li>3. Abdullayev H. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv uslubiy qo'llanma. – T.: "Cho'lpox", 2019.</li> </ol> <p><b>XI. Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: "Шарқ", 1999.</li> <li>2. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: "Ўзбекистон", 2008.</li> <li>3. Норматов У. Нафосат гурунглари. – Т.: Мумтоз сўз, 2010.</li> <li>4. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: "Шарқ", 2007.</li> <li>5. Жабборов Н. Адабиёт ва миллий маънавият. – Т.: "Маънавият", 2015.</li> <li>6. Мирвалиев С. Ўзбек адиллари. – Т.: "Езувчи", 1993.</li> <li>7. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: "Университет", 2006.</li> <li>8. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Т.: Шарқ, 2004.</li> <li>9. Xolikova N., Umaraliyev H. Komil inson, g'oya, talqin va tadrij. – Т.: 2022.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <p><a href="http://www.edu.uz">http://www.edu.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti</p> <p><a href="http://www.uzedu.uz">http://www.uzedu.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti</p> <p><a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a> – (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)</p>

	<p><a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> – Ziyonet axborot-ta'lif resurslari portal  <a href="http://www.cspl.uz">www.cspl.uz</a> – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti</p>
7.	<b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "<u>29</u>" <del>21</del>-sodagi qarori bilan tasdiqlangan</b>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sul:</b>  <b>N.Raxmonova</b> – CHDPU, "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  <b>N.Jabborov</b> – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori  <b>A.U.Muydinova</b> – CHDPU, "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>